O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana: 13-02-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

230649 - SONLI

Obyekt nomi: Namangan viloyati Kosonsoy tumani O‘rikzor MFY Xumxona ko‘chasi 99-a uy hududida “INFINITY FRAMEWORKS” MCHJ tomonidan “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarni o‘z ichiga olgan o‘rta (9) qavatli turar-joy” bino-inshootlari qurish	
Buyurtmachi:	INFINITY FRAMEWORKS MCHJ
Bosh loyihachi:	"ARCHPROJECT-MAX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	050945

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Namangan viloyati Arxitektura shaharsozlik kengashi yig‘ilishining 13.09.2024 yildagi 36-sonli bayoni.

1.2. Kosonsoy tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 17.09.2024 yildagi 146432548-sonli ruxsatnomasi.

1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyiha topshirig‘i.

1.4. Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 27.09.2024 yildagi 1714-1714207-199824-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

1.5. “GEO VALLEY GOLD” MCHJ tomonidan 2024 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosalari.

1.6. Ob’ekt loyihasining energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha xulosa.

1.7. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 30.09.2024 yildagi 14-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.

- Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarni o‘z ichiga olgan 9-qavatli turar-joy binolari (“A” blok, “B” blok, “V” blok). Arxitektura, temir-beton konstruksiyalari hamda ichki muhandislik tarmoqlari.
- Bosh reja va tashqi yoritish tizimi.
- Qurilishni tashkil qilish loyihasi.
- Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“A” BLOK	9	514	4386	18063	48
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“B” BLOK	9	406	3311	14410	41
Ko'p xonadonli turar joy binosi	“V” BLOK	9	480	4238	16337	54
Jami:			**1400**	**11935**	**48810**	**143**

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalanayotgan 9-qavatli turar-joy binolari Kosonsoy tumani O‘rikzor MFYda joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14°s. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes va suglinok (qatlam qalinligi 2,5 metrgacha), 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 12,2 metrgacha) asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo‘yicha toifasi – II. Cho‘kuvchanligi bo‘yicha 1-guruh tuproq turiga to‘g‘ri keladi. Yer osti suvlari 15 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relefi – tekis.

3.2. Bosh reja.

“INFINITY FRAMEWORKS” MCHJning mavjud 9000 m^2 hududida joylashgan: loyihalayotgan 9-qavatli turar-joy binolari – 3 dona (“A” blok, “B” blok, “V” blok), ayvon – 2 dona, bolalar maydonchasi, chiqindi to‘plash shaxobchasi, avtoturargoh, velosiped turargohi hamda kelajakda loyihalanadigan ko‘p qavatli turar-joy binolari – 3 dona. Yer maydonining chegaralari: janub va shimoldan – bo‘sh yer maydoni bilan, g‘arbdan – avtomobil yo‘li bilan, sharqdan – mahalliy yo‘li bilan. Hudud obodonlashtiriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. 9-qavatli turar-joy binosi (“A” blok).

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari gazobeton o‘zaklangan bloklardan, murakkab shaklni tashkil etib, “A-G” va “1-7” o‘qlar bo‘yicha 14,8mx30,0m o‘lchamda, yerto‘la qavat xonalar balandligi – 3,6m, 1-qavat xonalar balandligi – 3,5m, 2÷9-qavat xonalar balandligi – 2,95m.

Binoning yerto‘la qavatida omborxona, birinchi qavatda savdo zali va ofis, 2÷9-qavatlarda turar-joy xonadonlari ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 48 dona, shu jumladan: 2 xonali – 40 dona, 3 xonali – 8 dona.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.
Yerto‘la devori – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Devorlar – gazobetondan, 250 mm qalinlikda.
Pardadevor – gazobetondan, 120 mm qalinlikda.
O‘zaklar – metall burchaklardan.
Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.
Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 v7 yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.
Derazalar – PVX profil.
Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.
Pol – keramik, marmar, laminat, beton.

2. 9-qavatli turar-joy binosi (“B” blok).

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari gazobeton o‘zaklangan bloklardan, murakkab shaklni tashkil etib, “A-Yo” va “1-4” o‘qlar bo‘yicha 24,2mx14,4m o‘lchamda, yerto‘la qavat xonalar balandligi – 3,6m, 1-qavat xonalar balandligi – 3,5m, 2÷9-qavat xonalar balandligi – 2,95m.

Binoning yerto‘la qavatida omborxona, birinchi qavat qisman savdo zali va turar-joy xonadonlari, 2÷9-qavatlarda turar-joy xonadonlari ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 41 dona, shu jumladan: 1 xonali – 16 dona, 2 xonali – 16 dona, 3 xonali – 9 dona.

Konstruktiv yechimi.
Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.
Yerto‘la devori – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Devorlar – gazobetondan, 250 mm qalinlikda.
Pardadevor – gazobetondan, 120 mm qalinlikda.
O‘zaklar – metall burchaklardan.
Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.
Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 v7 yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.
Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.
Derazalar – PVX profil.
Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.
Pol – keramik, marmar, laminat, beton.

3. 9-qavatli turar-joy binosi (“V” blok).

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali, karkasli, diafragma asosli, tashqi devorlari gazobeton o‘zaklangan bloklardan, murakkab shaklni tashkil etib, “A-G” va “1-7” o‘qlar bo‘yicha 14,4mx30,0m o‘lchamda, yerto‘la qavat xonalar balandligi – 3,3m, 1-qavat xonalar balandligi – 3,2 m, 2÷9-qavat xonalar balandligi – 2,95m.

Binoning yerto‘la qavatida texnik xonalari, 1÷9-qavatlarda turar-joy xonadonlari ko‘zda tutilgan. Jami xonadon soni – 54 dona, shu jumladan: 1 xonali – 1 dona, 2 xonali – 45 dona, 3 xonali – 8 dona.

Konstruktiv yechimi.
Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.
Yerto‘la devori – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Diafragma – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Devorlar – gazobetondan, 250 mm qalinlikda.
Pardadevor – gazobetondan, 120 mm qalinlikda.
O‘zaklar – metall burchaklardan.
Ramalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.
Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V22,5.
Ora va tomyopma – UTR 46.1-95 v7 yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.
Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.
Derazalar – PVX profil.
Eshiklar – alyumin profil, MDF va metalldan.
Pol – keramik, marmar, laminat, beton.

Ichki muxandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.
Issiqlik ta’minoti manbai markazlashtirilgan modul qozonxona hisoblanadi (loyiha topshirig‘iga asosan isitish qozoni va tashqi issiqlik tarmog‘i ishchi loyihalari keyingi

bosqichda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan). Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=90°, T2=70°s parametrlarga ega bo‘lgan suv bo‘lib, isitish tizimi ikki quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta’minlangan bo‘lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul kilingan. Isitish suvo‘tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Binolarga xavo oqimi derazalar orqali kirishi ta’minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta’minoti.

Binolarga xo‘jalik-ichimlik, issiq suv, oqava suv hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar uchun turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa va po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti uchun quyosh suv isitkich qurilmalari nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Loyihada “A”, “B” va “V” bloklarini tashqi yoritish tizimi, ichki elektr ta’minoti, ichki yoritish tizimi, AIISKUE tizimi va quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha turar-joy binolari II toifadagi iste’molchilarga mansub. Loyihada 380/220V kuchlanish ishchi yoritish ko‘zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish tarmog‘i va quvvatli tarmoq VVGng-380V, magistral shitlarning tarmoq VVG-380V kabelda loyihalangan. Loyihada ShK turdagi xonadon shitchasi, ShE turdagi yoritish qavat shitlari, ShRNm, ShMP, PR11 va VRU11 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o‘rnatilishi hisobga olingan.

“A” blok.

Hisobiy quvvat – Rh-482,64 kVt.

Hisobiy tok – Ih-863,72 A.

“B” blok.

Hisobiy quvvat – Rh-412,18 kVt.

Hisobiy tok – Ih-681,5 A.

“V” blok.

Hisobiy quvvat – Rh-425,02 kVt.

Hisobiy tok – Ih-702,74 A.

Kuchsiz tok.

Loyihada har bir xonadonda internet, aloqa, televidenie hamda domofon tizimi tarmoqlari uchun texnik imkoniyatlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, modem qurilmalari, televidenie rozetkalarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Xonadonlar yong‘inga qarshi signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, tizimda qabul qiluvchi-nazorat asboblari, tutunli, issiqlikli yong‘in xabarlagichlari va IPR turdagi qo‘l xabarlagichlari qabul qilingan.

Yong‘in xavfsizligi.

Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Yong‘inni rivojlanishini oldini olish uchun yong‘in signalizatsiyasi tizimi loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo‘nalishida ochiladi. Chordoq tomining yog‘och konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi. Shuningdek, loyihada ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi nazarda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- pol ostiga zichligi ɣ=35 kg/m^3, qalinligi 30 mm bo‘lgan “penopolistrol” bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi ɣ=140 kg/m^3, qalinligi 50 mm bo‘lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);

- tomga zichligi ɣ=150 kg/m^3, qalinligi 100 mm bo‘lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVX dan qo‘llanilgan;
- loyihada jami 89 dona quyosh panellari (89x0,54 kVt=48,06 kVt) kiritilgan;
- loyihada jami 17 dona quyosh kollektori o‘rnatish ko‘zda tutilgan;
- hududni tashqi yoritish uchun quyosh panelli yoritgichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay va to‘siqsiz muhit yaratish:

- “A” va “B” bloklarda savdo zaliga kirish uchun pandus va tutqichlar, qo‘shimcha maxsus ko‘tarma qurilmasi, kirish joylarida ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- “A” va “B” blokda turar-joy xonadonlariga kirish tomonda pandus va tutqichlar, “V” blokda maxsus ko‘tarma qurilmasi, kirish joylarida ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- “A” va “B” blok 1-qavati savdo zallarida nogironligi bo‘lgan shaxlar uchun maxsus hojatxona (kabina), yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan;
- kirish eshiklarida kontrast belgilar, chaqiruvchi tugma, zina tutqichlarida “Brayl” alifbosi taktil ma’lumoti, harakat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi maxsus taktil belgilar ko‘zda tutilgan;
- hududda maxsus avtoturargoh ko‘zda tutilgan;
- hudud yo‘laklariga maxsus yo‘naltiruvchi taktil qoplama ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

- Tashqi muhandislik tarmoqlari alohida loyiha ishlanadi. Loyihada faqat tashqi yoritish tizimi tashqil etish va AIISKUE tizimi o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Namangan viloyati Arxitektura va shaharsozlik kengashining 6.11.2024 yildagi 156836880-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialining 23.10.2024 yildagi 01-02/07-1380-sonli xulosasi.
- O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Namangan viloyat hududiy bo‘limining 20.11.2024 yildagi 82-sonli xulosasi.
- Xonalar joylashtirish rejasi buyurtmachi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **55 336 008 968** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
11 137 995 445 so'mga kamaytirilib, **44 198 013 523** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **37 089 723 166** so'm
Asbob-uskunalar: **2 372 788 908** so'm
QQS: **4 735 501 449** so'm

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- Tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.
- Bosh reja buyurtmachi bilan – kelishildi.
- Bosh reja binolar va inshootlar kaydnomasida TIK – ko‘rsatildi.
- Bosh rejada turar-joy bloklari orasidagi zilzila bardoshlik choki o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.01-23 ning 416-bandiga muvofiq bosh rejada avtoturargoh – loyihalandi va soni tasnifda alohida 1-bosqich holatiga – ko‘rsatildi.
- Bosh rejada bolalar o‘yin maydoni qoplama tarkibi – ko‘rsatildi.

- ShNK 2.07.01-23 ning 407 va 408 bandlariga muvofiq bosh rejada velosipedlar turargohi – ko‘rsatildi.
- Bosh rejada ko‘kalamzorlashtirish bilan birga manzarali daraxtlar – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.07.02-22 talablari bo‘yicha ko‘zi ojizlar uchun konstrast belgilar, binoga yo‘naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil qoplama – loyihalandi.
- Qurilishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqildi.
- ShNQ 1.03.03-23 ning 3-ilovasiga asosan qayta rasmiylashtirilgan loyiha topshirig‘i – taqdim etildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2.10.2024 yildagi 14-06/10342-sonli xatiga asosan loyihada zilzilabardoshlikka doir instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha talablar – aks ettirildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024 yildagi PQ-161-sonli qaroriga asosan loyiha-smeta hujjatlarida zilzila bardoshlikka doir vibrodinamik uskuna yordamida tekshiruvdan o‘tkazish – aks ettirildi.
- Turar-joy binolari qavati bo‘yicha nomutanosiblikka Namangan viloyati Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 21.01.2025 dagi 01-05/102-sonli xati – taqdim etildi.
- Loyihada nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha alohida chizma – ishlandi.

“A”, “B” va “V” bloklari (AR-bo‘limi).

- Loyihada bino umumiy quvvati – ko‘rsatildi.
- Umumiy ma’lumotlar varag‘ida TIK – ishlandi.
- Umumiy ma’lumotlar varog‘ida energiya samaradorlik bo‘limi – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.07.02-22 41-bandiga asosan “A” va “B” blokda nogironligi bo‘lgan shaxslarni savdo zaliga erkin kirib chiqishi uchun qulaylik – yaratildi.
- ShNQ 2.07.02-22 ning 7-bandiga asosan savdo zallarida, kirish joylarida, zina va lift oldida, yo‘laklarda ogohlantiruvchi va yo‘naltiruvchi taktil qoplamalar – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.07.02-22 ning 77-bandiga asosan “A” va “B” blokda nogironlar uchun hojatxona (maxsus kabina) – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.02-23 ning 165-bandiga asosan savdo zaliga asosiy kirish joyida tambur – ko‘zda tutildi.
- Rejalarda yondosh binolar bilan koordinata o‘qi asosida masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan yerto‘lada ikkinchi evakuatsiya chiqish joyi – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 230-bandiga asosan lift shaxtalari bilan yonma-yon joylashtirilgan yashash xonalari o‘rni – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 36-bandiga asosan umumiy xonalar eni 3,0 metrga – keltirildi.
- Loyiha topshirig‘iga asosan “A” va “B” bloklarda yerto‘la va 1-qavat balandligi – o‘zgartirildi.
- Tashqi devor issiqlik himoya qatlami qalinligi tugunlar va metarial hisob jadvalida mutanosibligi – ta’minlandi.
- Pol ostiga issiqlik ximoya qatlami – ko‘zda tutildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ning 5.18 va 5.41-banlariga asosan zina katagi uchun tutunga qarshi eshiklar – ko‘zda tutildi.
- O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 14-16/524-sonli xatiga asosan yerto‘la devori tashqi tomondan issiqlik himoya qatlami bilan – himoyalandi.
- GOST 21.501-2018 ga asosan qirqimlarda tom qatlamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 226-bandiga asosan lift shaxtasi o‘lchamlari – o‘zgartirildi.

- ShNQ 2.07.02-22 ga asosan 1-qavatga kirish zina maydoni eni 1,5 metrga – ketirildi.
- ShNQ 2.07.02-22 ga asosan eni 2,5 metrdan katta zinalar uchun qo‘shimcha tutqich – ko‘zda tutildi.
- Eshiklar bo‘sag‘asiz bo‘lishi to‘g‘risida eslatmalar – berildi.
- Balkon tutqich chizmasi bolalar xavfsizligi uchun – qayta ishlandi.
- “V” blokda deraza osti balandlik sathlari, deraza ko‘rinishi yondosh binolar bilan mutanosibik – ta’minlandi.

“V” blokda loyiha topshirig‘iga asosan 2-qavat balandligi – o‘zgartirildi.

“V” blokda pollar tasnifi jadvali – ishlandi.

“A”, “B” va “V” bloklari (KJ-bo‘limi).

- Poydevor rejasida yondosh bino joylashgan seysmik chok o‘rnidan olingan kesimlar – ishlandi.
- Yerto‘la devor beton markasi seysmik kuchlar hisobiga ko‘ra – o‘zgartirildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.3 va 3.2.8-bandlariga asosan diafragmalar simmetrik joylashtirildi va seysmik kuchlar hisobi – qayta ishlandi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.5-bandiga asosan “1” va “2” tugunlari – qayta ishlandi.

QMQ 2.03.01-19 ga asosan to‘ldiruvchi devor gazobeton zichligi – ko‘rsatildi, “avtoklav” turi – qo‘llanildi.

- ShNQ 2.01.03-19 ning 3.1.1 bandiga asosan “A” va “B” bloklarda bir bo‘ylama bino balandligi 6 metrda ortiq seysmik choksiz chiqarilgan joy – olib tashlandi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 194-195-198-bandlariga asosan N1 tipli zina ko‘zda tutilmaganligi bo‘yicha berilgan kamchilik yuzasidan bino balandligi – kamaytirildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 228-bandiga asosan ikkita lift ko‘zda tutilmaganligi bo‘yicha berilgan kamchilik yuzasidan bino balandligi – kamaytirildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.2.9 bandiga asosan zina katagi konstruksiyasi – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 8-jadvaliga asosan zina chizmalarida o‘lchamlar – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.11 bandiga asosan rama tugunlarida diametri 16mm bo‘lgan sterjenlar – ko‘zda tutildi.
- Seysmik kuchlar hisobida ora va tomyopmalar temir-beton plitalar qo‘llanilgan holda – qayta ishlandi.
- Seysmik kuchlar hisobiga ko‘ra diafragma uchun qo‘shimcha diametri 16mm bo‘lgan armatura – qo‘llanildi.
- Ora va tomyopmalarda temir-beton plita seriyasi – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.11 bandi b) bo‘limiga asosan ora va tomyopma uchun antiseysmik kamar armatura soni 2 donadan 4 donaga – o‘zgartirildi.
- QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.10 bandiga asosan diafragma bor joylarda temir-beton plita tayanish o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- QMQ 2.01.03-19 ga asosan ora va tomyopmalar uchun antiseysmik kamar beton markasi V12.5 dan V15 ga – o‘zgartirildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan topyopma rejasida tomga chiqish joyi – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.08.01-24 ning 147-bandiga ko‘ra tom chizmasi – o‘zgartirildi.
- QMQ 2.03.10-19 ga asosan tomda qiyalik miqdori, to‘siqlar o‘rni, qor tutqichlar o‘rni, masofa o‘lchamlari – ko‘rsatildi.
- ShNQ 2.01.02-04 ga asosan tomda yong‘inga qarshi to‘siq – ko‘zda tutildli.
- Loyihada umumiy tom rejasi – ishlandi.

Muhandislik ta’minoti.

Kuchsiz tok.

- Turar-joy binosi ShNQ2.08.01-19 “Turar-joy binolari”ga 1-son o‘zgartirish 9.62-bandiga asosan, oshxonalari va kvartira ichi yo‘laklari manzilli yong‘indan xabardor qilish uskunalari bilan – jixozlandi.
- ShNQ2.08.01-19ning 9.56-bandiga muvofiq har bir xonadonda televizion antenna tarmog‘i hamda 9.58-bandga muvofiq telefon apparati – o‘rnatildi.
- Yashashga mo‘ljallanmagan jamoatchilik xonalari (savdo do‘konlari) avtomatik yong‘in signalizatsiyasi hamda yong‘indan xabarlash (оповещение) tizimi bilan – jihozlandi.
- Kriminal holatlarni oldini olish maqsadida turar-joy binosiga kirish qismi (pod’ezdlar) videokuzatuv tizimi bilan jihozlash – ko‘zda tutildi hamda domofon tizimi – o‘rnatildi.

Isitish va shamollatish.

- Binolarning energopasporti – taqdim etildi.
- QMQ 2.01.04-2018 ning 2.1* bandi 2b jadvaliga muvofiq issiqlik himoyalashning ikkinchi darajasi bo‘yicha hisobi – taqdim etildi.
- Ichki isitish tizimi uchun ShNQ 2.08.01-24 ning 280 bandiga muvofiq har bir xonadon uchun issiqlik miqdorini o‘lchash uchun hisoblagich va isitish haroratini tartibga soluvchi moslama bilan – jihozlandi.
- Ichki isitish tizimi uchun berilayotgan radiatorlar soni hisob jadvalida – ko‘rsatildi.
- Turar-joy binolari uchun 28 metrdan baland bo‘lgan binolar uchun QMQ2.08.01-24ning 200-201 bandilariga muvofiq lift shaxtasi uchun tashqi havo va tutunni haydash uchun shamollatish loyiha yechimi – berildi.

Elektr qismi.

- Qavat shitlari va bosh taqsimlash shiti hisobiy sxemalari – qayta ishlab chiqildi.

6.2. Ekspertiza tomonidan import qurilish materiallar va buyumlar, maxsus uskunalar, mebel va inventar hamda texnologik jihozlarning narxlari ko‘rib chiqilmadi.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Kosonsoy tumani O‘rikzor MFY Xumxona ko‘chasi 99-a uy hududida “INFINITY FRAMEWORKS” MCHJ tomonidan “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalarni o‘z ichiga olgan o‘rta (9) qavatli turar-joy” bino-inshootlari qurish” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Burxanov Nurillo Xayrillayevich, Mirzayeva Muyassarxon Qodirjonovna, Tursunov Ilyosbek Yunusxonovich, Jalilov Shokirjon Zokirjonovich, Maxkamov Toxir Marifjonovich, Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich, Tursunov Doniyor Ismonjanovich